

BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHDA MTT, OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI

Esonova Malohat Akilovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti

Mamadaliyeva Moxidil

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish ta'lim tizimi ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiqetish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bolalarning matematik rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Mahalliy hamjamiyat bilan bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, faravonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. MTT ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshiradi. Semenar, ota-onalar klubi, trening, masalalar konferensiya, davra suhbatlari, pedagogik mehmonlar va boshqalarni tashkil etilishi bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantiradi va takomillashtiradi.

Muntazam ravishda ma'lumitlarning maxfiyligini ta'minlagan holda pedagoglarning maxfiyligini ta'minlagan holda pedagoglarning ota onalar bilan onlayn va oflayn uchrashuv va yig'ilishlarini o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi bolalar rivojlanishi haqida ma'lumit berish va boshqalar orqali muloqot ta'minlanadi. Ota-onalarni huruj va maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngililik faoliyatiga jalb etish lozim Ota-onalar uyda bolaning o'qishini davom ettirishi uchun ko'maklashishlari kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ha oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish umumiy va guruhlarning ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi dasturlarini yetish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish bolaning qiziqclariga qarab maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'shimcha xizmatlarni tanlash mtt ota-onalar va hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarining turli shakllarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarni tarbiyalashda va rivojlantirishda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik kuchaytiriladi ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalaniladi, diqqatga sazovor joylarga tashrif buyuriladi, mahalliy hokim yetakchilari bilan uchrashuvlar tashkil etiladi, ularni guruhlarga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilinadi ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil qilinadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani shunday o'qitish kerakki, uni o'rab olgan tabiat tushunarli bo'lsin. Ota-onalar bunda unga yordam berib, muhim aloqalarni va o'zaro bog'lanishlarni ko'rsatishi mulohaza yuritishga solishtirishga o'rgatishi kerak.

Ota-onalarga o'z bolalari bilan shug'ullanganlarida ko'proq o'yin metodlaridan foydalanishni maslahat beramiz.

Bolalar uchun o'yin "Nima o'zgaradi" o'yini qiziqarlidir. Bu o'yin buyumlarning ikki guruhini taqqoslash oson, qiziqarli tarzda o'zlashtirishini ta'minlaydi. Masalan, pastki va ustki qatordagini ikki xil rangli oltitadan uchburchak turibdi. Bola qizil rangli uchburchaklar ham sariq rangdagi uchburchaklar ham oltitadan ekanligini ta'kidlaydi. Shundan keyin u ko'zlarini yumadi, bolalardan biri shu vaqt ichida uchburchaklardan birini olib qo'yadi. Bola ko'zini ochib, nima o'zgarganida aniqlashi va bu haqda gapirib berishi kerak.

Tarbiyachining asosiy vazifasi - ota-onalarning bolalar tasavvurini formal rivojlantirishlarining oldini olishi va bolani o'qitishda asosiy narsa beriladigan bilimlar hajmi emas, balki o'qitish natijasida olinadigan rivojlantiruvchi samara ekanini ko'rsatishdan iborat.

Bola o'qitish natijasida aqlliroq bo'lishi kerak. Agar u o'ylashni, mulohaza yuritishni, javoblarni o'ylab ularni mantiqan asoslab bera olishini o'rganib olsa, siz istalgan natijaga erishgan bo'lasiz.

Bolalarning rivojlanish xaritasi ularning rivojlanishini hujjatlashtirishning asosiy shaklidir. Bolalarning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uch bosqichdan iborat bo'lgan kuzatish olib boriladi: dastlabki (o'quv yili boshida), oraliq (o'quv yili o'rtasida) va yakuniy (o'quv yili yakunida). Dastlabki kuzatish o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentyabr oyida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari (boshlang'ich, ayni damdagi dolzarb rivojlanish darajasi) aniqlanadi. Uning shu davrgacha erishgan yutuqlari, kuchli tomonlari, shuningdek o'quv yilining boshida rivojlanish ehtiyoj va muommolari aniqlanadi hamda ularni hal qilish uchun pedagogning yordami talab qilinadi.

Pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (✓) bilan belgilaydi. Kuzrish rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Sharh yoki bu rivojlanish sohasidagi indikator (kutilyotgan natijalar), pedagog "Pedagog izohi" ustunidan eslatma yozishi lozim. Bolaning rivojlanish darajasini quyidagi tushuntirishlar yordamida belgilanadi:

- K-kuzatilmaydi yoki kamdan - kam kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni kamayib qiladi, xatti harakati kam yoki umuman namoyon qilmaydi).
- B-ba'zida kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi xatti harakatlari tasodifiy yoki ma'lum vaziyatlarda).
- T-tez -tez kuzatiladi (bola asosiy harakatni vaziyatga qarab namoyish etadi.)
- D-doimiy ravishda kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi, xatti harakati talab darajasida, mustaqil tarzda takrorlaydi.)

Oraliq kuzatish huddi shu tartibga binoan o'tkaziladi. Kuzatishning bu turi birinchi yarim yillik oxiri (dekabr, yanvar) da o'tkaziladi. Bunday kuzatishni o'tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning tirilishini metodikaning to'g'irligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatish natijalarga ko'ra, pedagog boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda zarurat tug'ilgan hollarda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O'quv yili oxirida (odatda, may oyida) pedgog yakuniy kuzatish o'tkizadi. Mazkur kuzatish asosida yil boshida qo'yilgan vazifalar qandey hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kuzatilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlar belgilanadi.

3-6 yoshdagi bolalarni oraliq va yakuniy kuzatish natijalariga ko'ra, ushbu bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha rivojlanishida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayonning maqsadlari aniqlanadi.

6-7 yoshdagi bolalar uchun (MTT bitiruvchisi) faqat oraliq kuzatish maqsadlari aniqlanadi, yakuniy kuzatishdan so'ng bolaning maktabga tayyorgarligi xaritasi to'ldiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ilk qadam davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022
2. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2020 yil, 9-mart
3. Maktabhacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti 802-sonli Qaror
4. Djanpeisova G.E, Xodjimuratova B.N. Matematik tasavvurlarni shakllantirish "Innovatsiya-Ziyo" 2022 yil
5. G. Nazirova, МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВОСИТАСИДА МИЛЛИЙ ҒУРУР ҲИССИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ–ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА - Science and innovation, 2022
6. N.G. Malikovna, MG Bakhodirovna, EDUCATION OF CHILDREN IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND FRIENDSHIP OF PEOPLES IN THE FAMILY.-International Journal of Early Childhood Special ..., 2022
7. Anvarovna, Sulstonova Nurxon. "O'QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
8. Anvarovna, Sulstonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
9. Anvarovna, Sulstonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).

